



samarali va xavfsiz yo’lidir [3]. Ushbu tizim 0.3 mikrongacha bo’lgan kichik zarralarni tutib havodagi PM25 darajasini sezilarli darajada kamaytiradi. Gibrit quvvat tizimi kamroq elektr istemoli bilan ishlashini taminlaydi. Global havo tozlagich bozori 2023- yilda 15.94 milliard AQSH dollari tashkil qildi va 2030 yilga kelib 25.5 miliard AQSH dollariga oshib, 7.1% o’sishi prognoz qilinmoqda. Bundan tashqari Xitoy shimolidagi Shensi provinsiyasida dunyodagi eng katta havo tozalagich bo’lib, balandligi 100 metrdan oshiqroq.

Agar O’zbekiston havosini tozalash uchun minoralar olib kelinsa 1 dona minora uchun 25-30 ming AQSH dollari sarf harajat qilinadi. Lekin bu texnologiyani o’zimizda yaratish imkoniyati mavjud. Filtr, ionizator va sorbent modda ishlab chiqarishni o’zimizda yo’lga qo’yish mumkin. Mablag’ masalasi xorijdan olib kelinganda 20-30 ming dollar atrofida bo’lsa, o’zimizda ishlab chiqarsak 5 yoki 7 baravar arzon bolishi mumkin. Bu texnologiyalar o’rnatilgandan so’ng o’sha zonalaridagi havo 15%, 20%gacha tozalashi kutiladi.

Xulosa qilib aytganda, atmosferaning tozaligi inson salomatligi, tabiiy muhit barqarorligi hamda iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. O’zbekistonda havo ifloslanishining asosiy manbalari sifatida transport vositalaridan chiqayotgan zaharli gazlar, sanoat korxonalarining chiqindilari, qishki mavsumda ko’mir va boshqa yoqilg’ilarning ko’plab yoqilishi, qishloq xo’jaligi faoliyati hamda keng ko’lamli qurilish jarayonlari ko’rsatib o’tiladi. Ushbu omillar havodagi zararli moddalarning ko’payishiga, ekologik muvozanatning buzilishiga va aholining hayot sifatiga salbiy ta’sir ko’rsatmoqda.

Xalqaro tajriba shuni ko’rsatmoqdaki, zamonaviy filtrlash texnologiyalari, ekologik toza transport vositalaridan foydalanish, yashil hududlarni kengaytirish, shuningdek, sorbsiya usullariga asoslangan havo tozalash minoralarini qo’llash orqali havo ifloslanishini samarali darajada kamaytirish mumkin. Ayniqsa, sorbsiya texnologiyalari ekologik xavfsizlikni ta’minlash, havodagi chang va zararli gazlarni ushlab qolish hamda havoning sifatini yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

O’zbekiston sharoitida bunday texnologiyalarni joriy etish, ularni mahalliy xomashyo va texnik baza asosida ishlab chiqish imkoniyati mavjud. Bu esa nafaqat ekologik muhitni sog’lomlashtirish, balki iqtisodiy jihatdan ham tejamkorlikka erishishga xizmat qiladi. Shu sababli, toza havo muammosini hal etishda texnologik yechimlar, davlat siyosati va aholining ekologik madaniyatini oshirishga qaratilgan kompleks yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Qizi, M. D. O. (2022). ATROF-MUHITING IFLOSLANISHIDA AVTOMOBIL VA UNDA CHIQUADIGAN OG’IR METALLARNING TA’SIRI HAMDA EKOLOGIK HOLATNING O’ZGARISHIGA OLIB KELUVCHI SABABLAR. *Инновационные подходы, проблемы, предложения и решения в науке и образовании*, 1(1), 84-88.
2. DeCoste, J. B. va Peterson, G. W. (2014). Zaharli kimyoviy moddalarni havoni tozalash uchun metall-organik ramkalar. *Kimyoviy sharhlar*, 114 (11), 5695-5727.
3. Tan, Y. S., Li, T. J. va Tan, K. (2009). *Toza, yashil va ko’k: Singapurning atrof-muhit va suv barqarorligi sari sayohati*. Janubi-Sharqiy Osiyo tadqiqotlari instituti.

SINESTEZIK METAFORALARDA OKKOZIONALLIK

Oripova Mavludaxon Baxriddinova

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o’zbek tili va adabiyoti universiteti 2-kurs doktoranti

Email: mavludaxonoripova85@gmail.com

Annotatsiya: Badiiy ijodda muallif o’zida yoki qahramonlar ruhiy olamida kechayotgan o’ziga xos jarayonlarni tasvirlash maqsadida tildan yangi imkoniyatlarni izlaydi va u o’zi ko’zlagan badiiy maqsadni realizatsiyasini ta’minlash uchun ko’chimgirlarga murojaat qiladi. Chunki ko’chimgirlar o’zida nutqiy ta’sirchanlikni ko’proq ta’minlashga xizmat qiladi. Ushbu maqolada oksimoron hodisasi orqali voqelangan sinestezik metaforalarning kuchli okkozional ma’nolar yaratishdagi roli ochib berilgan.

Kalit so’zlar: sinestezik metaforalar, oksimoron, uzual ma’no, okkozional ma’no

OCCASIONALITY IN SYNESTHETIC METAPHORS

Oripova Mavludaxon Baxriddinova

Alisher Navai Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature 2 year of a doctoral

Email: mavludaxonoripova85@gmail.com



Abstract: In literary creativity, the author seeks new possibilities within language to depict unique processes occurring with occasional meanings within themselves or in the inner world of their characters and turns to figurative expressions to realize their intended artistic goals. This article reveals the role of synesthetic metaphors manifested through the phenomenon of oxymoron in creating powerful occasional meanings.

Keywords: Synesthetic metaphors, oxymoron, usual meaning, occasional meaning

ОККАЗИОНАЛИЗМ В СИНЕСТЕТИЧЕСКИХ МЕТАФОРАХ

Oripova Mavludaxon Baxriddinovna

Ташкентской государственной университет узбекского языка и литературы имени Алишера Навои
2-курс докторант

Email: mavludaxonoripova85@gmail.com

Аннотация: В своём художественном творчестве автор обращается к новым языковым возможностям с целью описания своеобразных процессов, происходящих в его внутреннем мире или в психологии героев. Для реализации поставленных художественных целей он прибегает к тропам, так как именно они способствуют усилению выразительности речи. В данной статье раскрыта роль синестетических метафор, реализованных посредством оксюморонов, в создании ярких окказиональных значений.

Ключевые слова: синестетическая метафора, оксюморон, узуальное значение, окказиональное значение

Soʻzlarni noodatiy tarzda bogʻlab asar muhitiga olib kirish asarda emotsionallikni yuzaga keltiradi va turli maʼno nozikliklarini, qirralarini ochib beradi. Mantiqiy qurshovdagi bunday birikmalar kitobxonni tezda oʻziga jalb qiladi. Natijada ijodkorning badiiy maqsadini chuqurroq anglashga zamin yaratiladi. Bunday noodatiy bogʻlanishlarning biri sifatida oksimaron hodisasini keltirish mumkin [Zaynutdinova D.T., 1990:48].

Ayrim hollarda maʼnolari bir-biriga mutlaqo zid boʻlgan soʻzlarni oʻzaro bogʻlash bilan gʻayriodatiy birikmalar hosil qilinadi. Bunda birikma juda yuqori ekspressivlik va emotsionallik kasb etadi, kuchli emfatik intonatsiyaga ega boʻladi, bu oksimaron nomi bilan yuritiladi.

Soʻzlarni noodatiy tarzda bogʻlab asar muhitiga olib kirish asarda emotsionallikni yuzaga keltiradi va turli maʼno nozikliklarini, qirralarini ochib beradi. Mantiqiy qurshovdagi bunday birikmalar kitobxonni tezda oʻziga jalb qiladi. Natijada ijodkorning badiiy maqsadini chuqurroq anglashga zamin yaratiladi. Bunday noodatiy bogʻlanishlarning biri sifatida oksimaron hodisasini keltirish mumkin.

Demak, oksimaron – bu kontekstda mantiqiy zid munosabatlar asosiga quriladigan koʻchma maʼnodagi “ohorlangan” sintaktik va stilistik figuradir.

Oksimaron hodisasini oʻziga xos tarzda tadqiq qilgan G.G.Kuregin bunga yangicha usulda yondashib, mazkur hodisani nominativ birliklar darajasida talqin qiladi. Olim ushbu hodisani mohiyat jihatidan frazeologik birliklar bilan bir qatorda olish mumkinligini taʼkidlaydi: “Qoʻllanish darajasi va ekspressivlikka koʻra ular frazeologizmlarga yaqin turadi, ammo toʻliq darajada emas. Mualliflik oksimaronlari haqida shunday savol tugʻiladi: balki nutqda tez-tez qoʻllanganligi sababli ayrim oksimaronlar okkazonallikni yoʻqotgan va shu sababli ularni frazeologizmlar qatoriga qoʻshish mumkindir?” [Kuregin.G., 2007:9].

Tilshunos oksimaronning naminativ birlik ekanligining isboti sifatida hodisa zamirida yangi tushuncha yuzaga kelishiga eʼtiborni qaratadi: “Oksimaron – bu eski material ustiga qurilgan yangi hodisadirki, bu uning umumiy belgilari orasidan nominatsiyaning alohida birligi sifatida ajratishga yoʻl beradi”-deydi.

Haqiqatdan ham baʼzi oksimaronlar odatiy nutq vositasi sifatida qoʻllanilib, gʻayriodatiylik boʻyogʻini yoʻqotib boʻlgan. Masalan, tirik murda, tiriklayin oʻdirmoq shu kabi bir qator oksimaronlarning nutqda qoʻllanishining ommalashgani va tinglovchiga oson tushinish imkoniyatini berganligi sababli bularning vazifalari frazeologik birliklarga juda yaqin turadi. Tursunboy changalzorlar orasida tirik murdaga aylanib boʻlgan edi (A.Q., «Qochoq»)

Ammo shuni alohida taʼkidlash oʻrinliki, frazemalar oʻzining leksik muqobiliga ega, yaʼni frazema-frazema bilan, frazema- leksema bilan sinonimik munosabatga kirisha oladi. Oksimaronlar ifodalayotgan



denotat esa bu jihatda o‘ta murakkab xarakterli hisoblanib, uning denotatini ma’lum leksik muqobil bilan almashtirib bo‘lmaydi. Chunki oksimaronlar shunday o‘ziga xos birliklarki, murakkab, qiyin vaziyatlarni o‘ziga xos ta’sirchan ifodalovchilardir.

Badiiy matnda emotsionallikning ifodalovchisi sifatida antisemik birliklar asosida tuzilgan noodatiy birliklarning komponentlaridan birining “belgi” bildiruvchi so‘zlardan iborat bo‘lishi ko‘proq kuzatiladi. Ba’zan ma’lum belgi orqali ifodalan Bu holatda belgi bildiruvchi so‘zlardagi konkret mazmun abstraktlashib boradi. Bu abstrakt mazmun so‘zning konkret mazmundagi ma’no qirralari asosida yuzaga keladi. Bunda ijodkor o‘zida kechayotgan anglab bo‘lmas holatlarni yorqin aks ettiradi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, biz ilmiy kuzatishlarimiz jarayonida shu narsaga amin bo‘ldikki, oksimaron holatida munosabatga kirishayotgan ko‘chma ma’no ifodalashga xizmat qilayotgan birliklar, ma’lum bir sezgi orqali idrok etilishi lozim bo‘lgan tushunchalar farqli tuyg‘ular orqali ifodalanganda betakror, favqulodda kuchli okkazonallik bo‘yog‘iga ega bo‘lgan g‘ayriodatiy birikmalar yuzaga keladi. Aynan shu o‘rinda oksimaronli sinestezik metaforalar hosil bo‘ladi, ya’ni oksimaroniya va sinesteziya hodisalari o‘zaro to‘qnashadi va ular qorishig‘ida o‘ta kuchli emotsionallikka boy bo‘lgan yangi bir okkoziyal butunlik yuzaga keladi. Masalan,

So‘ldirdi umrimning gulin bu zamon

Qaynoq qahratonning yellari shoshqin.

Atrof tuman yo‘li, qarshilar sovuq.

Zimiston qa’riga cho‘kmishdir hayot.(R.Parfi.)

Adabiyotlar:

1. Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивликнинг ифодаланиши. Тошкент: Фан, 1983. – 41 б.
2. Абдурахмонов Х., Махмудов Н. Сўз эстетикаси. – Тошкент: Фан, 1981. – 59 б.
3. Аҳмад С. Танланган асарлар. III жилд. – Тошкент: Шарқ, 2000.
4. Аристотель. Поэтика. – Тошкент: Ғофур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1980. – 74 б.
5. Ҳақимов М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари. – Тошкент: Академнашр, 2013. – 91 б.

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI BUXGALTERIYA HISOB VA AUDIT SOHASIGA OID TERMINLAR NEOLOGIZMI

Azimova Dildora Maxmudjonovna

Namangan davlat texnika universiteti, PhD katta o‘qituvchisi

<https://orcid.org/0009-0003-7179-6202>

Annotatsiya. Mazkur maqolada ingliz va o‘zbek tillarida buxgalteriya hisobi hamda audit sohasida shakllanayotgan zamonaviy neologizmlar tahlil qilinadi. So‘nggi yillarda iqtisodiy, texnologik va huquqiy o‘zgarishlar natijasida sohada ko‘plab yangi terminlar paydo bo‘lib, ular buxgalteriya amaliyotini raqamlashtirish, sun‘iy intellektni joriy etish va xalqaro standartlarni tatbiq etish jarayonlari bilan bog‘liq. Maqolada ushbu neologizmlarning mazmuni, inglizcha shakllari va amaliy qo‘llanilishi misollar bilan yoritilgan.

Kalit so‘zlar: neologizm, buxgalteriya hisobi, audit, termin, raqamli iqtisodiyot, kriptoaktivlar, sun‘iy intellekt, xalqaro standartlar.

NEOLOGISMS OF ACCOUNTING AND AUDITING TERMINOLOGY IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Azimova Dildora Makhmudjonovna

Namangan State Technical University, PhD Senior teacher

<https://orcid.org/0009-0003-7179-6202>

Abstract. This article analyzes modern neologisms emerging in the fields of accounting and auditing in the English and Uzbek languages. In recent years, due to economic, technological, and legal changes, numerous new terms have appeared in these areas. They are closely related to the processes of digitalization of accounting practices, the implementation of artificial intelligence, and the adoption of